


NAMANGAN VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- iyul)


Viloyat bo'yicha 2019 yilning yanvar- iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5064,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,6 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 598 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 50,5 foiz), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4466,9 mlrd.so'mni (o'sish sur'ati 2,6 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 633,3 mlrd.so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5 foizga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, va To'raqo'rg'on tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (foizda)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)

2018 yil
yanvar- iyul



2019 yil
yanvar- iyul



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

Shahar va tumanlar kesmida chakana savdo tovar aylanmasi


	Mln.so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	5064930,1	106,6
Namangan.sh	2007610,6	103,4
tumanlar:		
Mingbuloq	108207,0	102,1
Kosonsoy	287028,6	101,9
Namangan	240295,8	102,8
Norin	341136,5	102,1
Pop	316977,4	105,8
To`raqo`rg`on	337655,7	107,3
Uychi	182739,7	102,5
Uchqo`rg`on	241456,3	126,5
Chortoq	264340,8	122,4
Chust	459985,5	120,9
Yangiqo`rg`on	277496,1	100,8

Chakana savdo tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarda yuqori o`shish sur`ati kuzatildi: Uchqo`rg`on – 126,5%, Chortoq – 122,4 % va Chust – 120,9 % tumanlarda ko`paydi.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	598044,4	150,5	4466885,6	102,6
Namangan.sh	212150,7	107,3	1795460,0	102,9
tumanlar:				
Mingbuloq	391,1	93,9	107815,9	102,1
Kosonsoy	838,8	90,7	286189,7	102,0
Namangan	3337,7	1140,1	236958,2	101,5
Norin	12189,9	103,9	328946,6	102,0
Pop	43383,2	135,5	273594,2	102,2
To'raqo'rg'on	36841,4	188,6	300814,4	101,9
Uychi	706,3	130,1	182033,4	102,4
Uchqo'rg'on	64214,0	373,1	177242,3	102,1
Chortoq	47511,3	1096,6	216829,5	102,4
Chust	172397,1	173,5	287588,4	102,3
Yangiqo'rg'on	4083,1	30,7	273413,0	104,4

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (foizda)



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilga nisbatan Viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Namangan shahri (3263,7 ming.so`m), Norin (2120,9 ming.so`m) va Chust (1764,0 ming. so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mingbuloq (875,0 ming.so`m), Uychi (875,9 ming.so`m), Yangiqo'rg'on (1298,7 ming.so`m) va Chortoq (1353,3 ming.so`m) tumanlarida qayd etilgan.

2019 yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1832,0 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,5 foizga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	1832,0	104,5
Namangan.sh	3263,7	101,3
tumanlar:		
Mingbuloq	875,0	100,0
Kosonsoy	1401,3	99,8
Namangan	1369,4	100,5
Norin	2120,9	100,3
Pop	1468,4	103,9
To`raqo`rg`on	1523,5	105,1
Uychi	876,0	100,3
Uchqo`rg`on	1429,8	124,2
Chortoq	1353,3	120,0
Chust	1764,0	118,7
Yangiqo`rg`on	1298,7	98,8

2019 yilning yanvar-iyul oylarida o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,6 foizni tashkil etib, 81,0 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar oylariga nisbatan 13,6 foizga o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,2 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Namangan viloyatining ulgurji savdo tovar aylanmasi

(2019 yil yanvar-iyul)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1249,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 6,2 foizga ko'paydi

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra 625,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 % ga ko'paydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 50,1 % ni tashkil qilmoqda.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	1249621,6	106,2	623890,2	111,2	625731,3	101,6
Namangan.sh	635660,4	96,5	337302,1	91,9	298358,4	102,2
tumanlar:						
Mingbuloq	5234,7	95,4	156,6	34,4	5078,2	101,0
Kosonsoy	38490,9	100,2	133,9	29,2	38357,1	101,1
Namangan	30704,3	100,4	359,3	66,6	30345,1	101,0
Norin	57304,1	100,7	4,0	2,9	57300,1	101,0
Pop	29844,8	100,8	302,3	78,3	29542,5	101,1
To'raqo'rg'on	284710,2	160,9	253641,1	173,5	31069,1	101,3
Uychi	14488,6	99,6	32,6	13,0	14456,0	101,1
Uchqo'rg'on	15858,5	91,9	168,6	9,8	15690,0	101,1
Chortoq	77446,5	117,7	10820,6	0,0	66625,9	101,2
Chust	33708,3	60,8	20969,3	48,9	12738,9	101,3
Yangiqo'rg'on	26170,3	97,5	0,0	0,0	26170,3	101,1

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari (foizda)



Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o`sinh sur`ati kuzatildi: To'raqo'rg'on – 160,9% va Chortoq – 117,7% tumanlarda ko`paydi.